

MATERIYA – BORLIQNING MODDIY SHAKLI SIFATIDA

Xusenova Ferangiza Furqat qizi
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti Tarix fakulteti
1-bosqich talabasi

Anotatsiya : Materiya borliqqa nisbatan kichikroq tushuncha bòlib , uni kòz bilan kòrish mumkin . materiya dunyodagi cheksiz barcha ob’ekt va sistemalar bo’lib, har qanday xususiyat, aloqa, munosabat va harakat shakllarining substrati (asosi)dir . Materiya bu – substansiya.

Tayanch sòzlar : Materiya , harakat, borliq , fermion , foton , fazo , substansiya , substrat , mega , mikro , makro dunyo , organik , anorganik va ijtimoiy borliq .

Maqolaning maqsadi materiya haqida aniq va tòliq ma’lumot berishdan iborat. Materiya massaga ega va fazoda joy oluvchi obyektidir. Materiya tushunchasining aniq ta’rifi yo’q. Ba’zi ta’riflarga ko’ra, materiya elementar fermionlardan iborat har qanday narsadir (biroq bunda bir qator muammolar tug’iladi: elementar fermion bo’lmagan, biroq massaga ega bozonlar mavjud; fermiondan iborat neytrinolarning ayrim tiplari massasiz bo’lishi mumkin). Yorug’lik (fotonlar) va ba’zi bozonlar materiya, deb qaralmaydi.

Materiya (lot. materia — modda) — borliqning moddiy shaklini ifodalovchi umumiy tushuncha. Olamda "umuman odam" bo’lmaganidek "umuman Materiya " ham bo’lmaydi, balki Materiyaning aniq, ko’rinishlari uchraydi. Shu tarzda fikr yuritgan faylasuflar barcha moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumlashtirib ifodalash uchun Materiya tushunchasini qo’llashgan. Materiya tushunchasini moddiy olamning substrati (asosi) sifatida Platon va Aristotel ishlab chiqqan, shu bilan birga Materiya sof potensiya (yashirin imkoniyat) deb tushunilgan. Materiyaning R. Dekart fazoviy ko’lam va bo’linadigan moddiy substansiya deb ta’riflagan va u 17— 18-asr materializm asosi bo’lgan. Materiya dialektik materiyaizm yaint asosiy tushunchasidir. Materialist faylasuflar Materiya tushunchasini bir yoqlama bo’rttirib, borliq tushunchasi bilan aynanlashtirib talqin etishadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni umumlashtiruvchi tushuncha substansiya (mohiyat) deb ataladi. Olamning asosida bitta substansiya yotadi deb hisoblovchi oqim monizm, ikkita substansiya yotadi deb hisoblovchi oqim dualizm, ko’p substansiyalar yotadi deb hisoblovchi oqim plyuralizm deb atalgan.

Olamning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi uzoq, o’tmishga borib taqaladi. Qadimgi Hindiston va Xitoyda, Misr va Bobilda, qadimgi O’rta Osiyo va Yunonistonda faylasuflar olamning asosida qandaydir modda yoki unsur yotadi deb

hisoblashgan. Ularning ba'zilari bu unurni olov, boshqalari — suv yoki havo, ayrimlari — tuproq deb bilishgan. Ba'zi falsafiy ta'limotlarda esa olamning asosida 4 unsur — olov, havo, suv va tuproq yotadi, barcha narsalar shu 4 ta unurning birikishidan hosil bo'lgan, deb ta'kidlanadi. Yunon faylasuflari Levkipp, Epikur, Demokrit olamning asosida eng kichik bo'linmas unsurlar — atomlar yotadi, ular o'zlarining shakli, harakatlanishi va vaznlari bilan birbiridan farq qiladi, deb hisoblashgan. Shunday qilib, moddiy olamning asosida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima yotishini, ya'ni ilk, azaliy Materiyaning "bobokaloni"ni axtarish vujudga keldi. 20-asr boshlarida markschi faylasuflar Materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib, sezgi uyg'otuvchi obyektiv reallikdir deb ta'rif berishgan. Bu ta'rif aytilgan davrda Materiya tuzilishining murakkab shakllari haqidagi tasavvurlar u qadar rivojlanmagan edi. 20-asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va relyativistik kosmologiya sohalaridagi ilmiy yutuklar kishilarning obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishning imkoni bo'lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqot olib bora boshladilar.

Materiya — dunyodagi cheksiz barcha obyekt va sistemalar bo'lib, har qanday xususiyat, aloqa, munosabat va harakat shakllarining substrati (asosi)dir. Materiya tabiatda bevosita ko'z bilan ko'riladigan obyektlar va jismlarnigina emas, balki kuzatish vositalari va eksperimentning takomillashishi asosida kelgusida bilinishi mumkin bo'lgan narsalarni ham o'z ichiga oladi. Materiya o'zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon fanlarining xulosalariga ko'ra, har qanday jism molekullardan, molekullar atomlardan, atomlar proton va neytronlardan tashkil topgan va h.k. Sifat jihatdan Materiya ikki: moddasimon va nomodda ko'rinishida uchraydi. Moddasimon ko'rinishi modda va antimoddaga ajraladi. Bular bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular to'qnashganda keskin sifat o'zgarishi ro'y beradi, ya'ni modda nomoddiy ko'rinishga, nomodda esa moddiy ko'rinishga aylanadi. Materiyaning nomoddiy ko'rinishi ham ikki: maydon va nurlanish shaklida uchraydi. Muayyan maydondagi nurlanishlar fizik vakuumda moddiy zarralarning hosil bo'lishiga imkon beradi. Materiyaning yuqorida qayd etilgan ko'rinishlaridan boshqacha ko'rinishdagi turlari ham bo'lishi mumkin. Ularning tabiati hali fanga ma'lum emas.

Materiya tuzilishi tashkiliy strukturaviy va miqyosiy strukturaviy darajalariga bo'linadi:

1. materiyaning tashkiliy-struktura darajalari – moddiy sistemalarning tashkiliy jihatdan uyushganligi va faolligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bu darajalar fazo-vaqt strukturasi sifatli xususiyatlari bilan farq qiladi. Ular anorganik dunyo (notirik tabiat), organik dunyo –(tirik tabiat) va ijtimoiy dunyo (jamiyat) deb yuritiladi.

Anorganik dunyoda – fizikaviy va ximiyaviy aloqadorliklar hukmronlik qiladi,

shu tufayli undagi qonuniyatlar shu harakat shakllari doirasida cheklangan bo‘lib, bu dunyo nisbatan passiv va tashkiliy jihatdan uyushganligi past darajada bo‘ladi. Uning tarkibiga atomlar, molekulalar, geolgik jinslar, qatlamlar, yer shari, uning po‘stlog‘i va yadrosi, yer sharining o‘zi, kosmik jismlar, quyosh va uning sistemasi, kosmik ob‘ektlar, yulduzlar, galaktikalar –xulas butun koinot.

Organik dunyo – yer sharidagi butun tirik tabiat (hujayralar, o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi, inson...). Biologik aloqadorliklar uyushganlik darajasi rivojlanganroq.

Ijtimoiy dunyo - (inson, kishilik jamiyati, ijtimoiy jarayonlar va soqial sistemalar, jamiyat, davlat, siyosiy tuzilmalar, oila, mahalla, sivilizatsiya). Materiya o‘zining o‘ta uyushganligi vayuqori darajada faoligini namoyish etadi.

2. materiyaning miqyosiy-struktura darajalari – moddiy sistemalarning bir-biridan mazkur sistemada hukmronlik qiluvchi fundamental kuchlar bilan farq qiluvchi darajalardir. Ular: mikro dunyo, makrodunyo va mega dunyolarga bo‘linadi.

Mikro dunyo atom mashtablardan kichik bo‘lgan dunyodir. Bu dunyoning yaxlitligini va turg‘unligini saqlab turuvchi 2 ta fundamental kuch mavjuddir: kuchli va kuchsiz yadroviy o‘zaro ta’sir kuchlaridir. Bu kuchlar atom yadrosining strukturaviy birligi va yaxlitligini ta’minlaydi .

Mega dunyo – Yerdan to koinot miqyosigacha bo‘lgan katta o‘lchovdagi dunyodir. Yer, uning tabiiy yo‘ldoshi Oy va boshqa sayyoralar Quyosh atrofida harakatlanadi. Bu gravitatsion o‘zaro ta’sir kuchlari tufayli saqlanadi .

Makrodunyo – biz odatlangan miqyosdagi o‘lchovlar bilan bog‘langan dunyo. Bu dunyoda elektromagnit o‘zaro ta’sir kuchlari hukmronlik qiladi.

Odamlar o‘zlarining hayot faoliyatida dastlab voqelikning moddiylik (modda) ko‘rinishiga duch keladilar. Shu sababli qadimgi davrlardan hozirgi kungacha voqelikning ibtidosini moddiy narsalardan qidirishga urinib kelmoqdalar. Qadimgi davr faylasuflari ana shu jarayonni ifodalash uchun “Materiya” (lotincha –modda, ilk asos) ishlatishgan. Antik davrda materiyaning birinchi material (suv, olov, tuproq, suv, atom) sifatida tushunishni o‘z ichiga oladi. Sharq faylasufi Al-Kindiyning fikricha materiya Allohning amri bilan yo‘qdan bor bo‘lgan.

Xulosa – materiya dunyodagi cheksiz barcha ob‘ekt va sistemalar bo‘lib, har qanday xususiyat, aloqa, munosabat va harakat shakllarining substrati (asosi)dir.

Materiya – bu tushunchalar, abstraksiyalar, fikrimizning mahsulidir. Ya’ni moddiy ob‘ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo‘llanadigan tushuncha materiya. Demak materiya moddiy ob‘ektlarga xos eng umumiy tushunchadir. Materiya o‘zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi .Materiya obyektiv reallikni ifodalovchi falsafiy kategoriya bo‘lib, bu obyektiv reallikni inson o‘z sezgilari bilan idrok qiladi va u bizning sezgilarimizga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir, bizning sezgilarimiz undan nusxa, surat oladi, unikos

ettiradi.

Xulosa:

Bu maqolani o'qish jarayonida materiya va borliq o'rtasidagi farqlarni va materiyaning tuzilishi, xossalari, umumiy xususiyatlarini o'rganish mumkin. Materiya tabiatda bevosita ko'z bilan ko'riladigan obyektlar va jismlarigina emas, balki kuzatish vositalari va eksperimentning takomillashishi asosida kelgusida bilinishi mumkin bo'lgan narsalarni ham o'z ichiga oladi. Materiya bu borliqning moddiy va muhim shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zMe. Birinchi jild Toshkent 2000
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000 - 2005
3. [Materiya - Vikipediya](<https://uz.wikipedia.org/wiki/Materiya>)
4. [Borliq - Vikipediya](<https://uz.wikipedia.org/wiki/Borliq>)
5. [BORLIQ FALSAFASI (ONTOLOGIYA)](<https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/borliq-falsafasi-ontologiya>)